

Maxfiylik siyosati

Bu hujjat ro'yxatdan o'tish, mualliflik arizasi, kabinetga kirish, obuna va bildirishnomalar uchun kiritilgan ma'lumotlar haqida.

1. Qanday ma'lumotlar olinadi

- Ro'yxatdan o'tishda ism, email va parol himoyalangan ko'rinishda saqlanadi.
- Muallif bo'lish arizasida ism, email, yo'nalish va taklif matni ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi.
- Kabinetga kirgan foydalanuvchini tanish va xavfsiz holatda saqlash uchun vaqtinchalik kirish belgisi ishlatiladi.
- Sahifa ko'rishlari va umumiy tashriflar xizmat sifatini yaxshilash uchun hisoblanishi mumkin.
- Bildirishnoma yoqilganda foydalanuvchiga yangi xabarlar haqida xabar berish uchun kerakli ruxsatlar saqlanishi mumkin.

2. Ma'lumotlardan foydalanish maqsadi

- Akkaunt yaratish, kabinetga kirishni ta'minlash va foydalanuvchini tanish.
- Muallif arizasini tekshirish, tasdiqlash yoki rad etish.
- Sayt sifatini oshirish, materiallar o'qilishini baholash va xizmatdagi muammolarni kamaytirish.
- Yangiliklar oqimi, bildirishnomalar va qidiruvga mos taqdimotni yuritish.
- Spam, plagiat va xavfli kontentni kamaytirish.

3. Kirish holati va eslab qolish

- Kabinetga kirish holati cheklangan muddat davomida saqlanishi mumkin.
- Tashrif statistikasi umumiy ko'rinishda hisoblanadi va xizmatni yaxshilashga yordam beradi.
- Brauzer ma'lumotlari tozalansa, ayrim bo'limlarga qayta kirish talab qilinishi mumkin.
- Xavfsizlik uchun kuchli parol va shaxsiy qurilmadan foydalanish tavsiya qilinadi.

4. Hamkor xizmatlar

- Rasmlarni xavfsiz joylash, kontentni ishonchli saqlash va yangilangan materiallarni qidiruv platformalariga yetkazish uchun ishonchli xizmatlardan foydalanilishi mumkin.
- Har bir hamkor xizmat o'z xavfsizlik va maxfiylik siyosatiga ega.
- Hallaym foydalanuvchi ma'lumotlarini faqat xizmat sifati va xavfsizligi uchun zarur doirada ishlatadi.

5. Ma'lumotlarni himoyalash

- Parollar oddiy matn ko'rinishida saqlanmaydi.
- Boshqaruv va muallif xonalari foydalanuvchi huquqlariga qarab himoyalanaadi.
- Muallif materiali ommaga chiqishidan oldin boshqaruv tasdig'idan o'tadi.
- Sayt egasi xavfsizlikni kuchaytirish, kirishni cheklash va shubhali faoliyatni to'xtatish huquqiga ega.

6. Foydalanuvchi huquqlari

- Foydalanuvchi akkaunt ma'lumotlarini yangilash yoki o'chirish bo'yicha tahririyat bilan bog'lanishi mumkin.
- Muallif o'z profili va yuborgan materiallari bo'yicha boshqaruv jamoasiga murojaat qilishi mumkin.
- Bildirishnoma ruxsatini brauzer sozlamalaridan istalgan vaqtda o'chirish mumkin.